

Ijro uchun

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti  
Kuzatuv kengashining  
2025 yil 16 yanvardagi yig‘ilishining 1-son  
BAYONNOMASIDAN KO’CHIRMA

Qatnashdilar:

Kuzatuv kengashi raisi: Ashurov Muxsin Xurramovich

Kuzatuv kengashi kotibi: Usmanova Dilafroz Qarshiyevna

Kuzatuv kengashi a’zolari: Djalolov Shavkat Amonovich, Saidmurodov Uktam, Eshankulov Shaxzod Eshquvvatovich, Shukurlayev Dilshod Dalerovich, Musinov Baxtiyor Muxamedjanovich, Raximov Pulat Raximovich, Yusupov Nosir Fatixovich, Abdulloyev Kamol Talatovich, Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Soleyev Axmadjon Soleyevich, Ismayil Usmanovich Raxmanov.

**YIG‘ILISH KUN TARTIBI**

**5-masala.** Xorijiy talabalar uchun universitet grantini ajratish.

**Ma’ruzachi: SamDU rektori R.I.Xalmuradov.**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 61-sonli Qarori bilan moliyaviy mutaqillik berilgan oliy ta’lim muassasalariga o‘z mablag‘lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish vakolati berilgan. Ushbu vakolatdan foydalaniib universitetning xorijiy davlatlarda nufuzini oshirish, xorijiy davlatlar fuqarolarining o‘zbek tilida bilim olishlariga sharoit yaratish orqali xorijiy fuqarolarni universitetimizda talaba bo‘lishga qiziqtirish va va keng qamrovli jalb qilish rejallashtirilgan.

Ushbu rejalarini amalga oshirish maqsadida dastlab xorijiy talabalarning bir qismiga universitet grantini ajratish orqali jalb qilish ko‘zda tutilgan. Bunda grant tarkibiga bepul o‘qitish, universitet talabalar turar joylaridan o‘rin va stipendiya ajratish kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 61-sonli Qarori ijrosini ta’minalash, shuningdek, xorijiy talabalar uchun universitet grantini ajratish masalasini ko‘rib chiqib, universitetining Kuzatuv kengashi yig‘ilishida

**QAROR QILINDI:**

- Universitetning o‘z mablag‘lari hisobidan kunduzgi bakalavr ta’lim yo’nalishi bo‘yicha 10 nafar xorijiy fuqarolar uchun “universitet granti” joriy etilsin. “Universitet granti”ni moliyalashtirish universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsin.
- “Universitet granti”ga talabgorlarni aniqlash, grant tadbiq etiladigan talabalarni tanlab olish bo‘yicha tartiblar va tegishli me’yorlar ishlab chiqilib, universitet kengashi tomonidan tasdiqlansin

Kengash raisi



Kengash kotibi

M.X.Ashurov

D.Q.Usanova